



**QO‘QON MADANIY MEROSINI ZAMONAVIY MUZEYLARDA
EKSPOZITSION KONSEPT ASOSIDA TAQDIM ETISH PRINSIPLARI**

**ПРИНЦИПЫ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ
КОКАН В СОВРЕМЕННЫХ МУЗЕЯХ НА ОСНОВЕ КОНЦЕПЦИИ
ЭКСПОЗИЦИИ**

**PRINCIPLES OF PRESENTATION OF KOKAN CULTURAL
HERITAGE IN MODERN MUSEUMS ON THE BASIS OF AN
EXPOSITIONAL CONCEPT**

Madraximova Gulshanoy Sotiboldiyevna

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Milliy iftihar,
va harbiy vatanparvarlik kafedrasini professori

Мадрахимова Гульшаной Сотиболдиевна

Академия Вооружённых Сил Республики Узбекистан Национальная
гордость и военный патриотизм профессор кафедры

Madrakhimova Gulshanoy Sotiboldievna

Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan National pride and
military patriotism professor of the department

Аннотация: Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi madaniy merosini zamonaviy muzeylarda ekspozitsiya konsepti asosida taqdim etish jarayoni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ekspozitsion strategiyalarda xalqaro tajribalar asosida shakllanayotgan “yashayotgan muzey” (living museum) konsepsiyasining joriy etilishi – tomoshabinni passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantirish imkonini begiishi taхлил қилинган.

Kalit so‘zlar: zamonaviy muzeylarda, Ekspozitsion konsepsiy, etnografik, estetik kontekst, vizual va interaktiv, audio-vizual animatsiya

Аннотация: В статье рассматривается процесс представления культурного наследия Кокандского ханства в современных музеях на основе концепции экспозиции. Также анализируется, как внедрение концепции «живого музея», формирующейся на основе международного опыта выставочных стратегий, позволяет зрителю превратиться из пассивного наблюдателя в активного участника.

Ключевые слова: в современных музеях, концепция выставки, этнография, эстетический контекст, визуальное и интерактивное, аудиовизуальная анимация.

Annotation: This article discusses the process of presenting the cultural heritage of the Kokand Khanate in modern museums based on the concept of exposition. It also analyzes the implementation of the concept of a "living museum" in exposition strategies, which is being formed based on international experience - an opportunity to transform the viewer from a passive observer into an active participant.

Keywords: in modern museums, exhibition concept, ethnographic, aesthetic context, visual and interactive, audio-visual animation

Qo‘qon madaniy merosini zamonaviy muzeylarda ekspozitsion konsept asosida taqdim etish jarayoni murakkab tarixiy-estetik qatlamlarni zamonaviy muzeyshunoslik yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi. Bunda nafaqat moddiy-madaniy boyliklarni jamlash, balki ularni tarixiy kontekstda ilmiy asoslangan tarzda namoyish etish, estetik va ma‘naviy semantikasini saqlab qolgan holda auditoriyaga yetkazish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Qo‘qon xonligining tarixiy merosi o‘zining keng ko‘lamli siyosiy, iqtisodiy va madaniy faoliyati bilan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida alohida o‘rin egallaydi. Aynan shu boisdan, uni muzeylar kontekstida taqdim etishda tarixiy izchillik, tematik yaxlitlik, ko‘rgazmaboplik va ilmiylik tamoyillari asosiy mezon sifatida qaralishi lozim. Ekspozitsion konsepsiyalarni ishlab chiqishda milliy-madaniy identitetni qayta talqin etish, interaktiv texnologiyalar yordamida tarixiy haqiqatni ommaga yetkazish, vizual estetikani yuqori darajada ta‘minlash kabi zamonaviy metodlar qo‘llanishi talab etiladi. Bu jarayon, avvalo, Qo‘qon tarixini aks ettiruvchi moddiy va nomoddiy meros obektlarini to‘plash va ularni ekspozitsion ssenariy asosida tematik guruhlariga ajratishdan boshlanadi: harbiy-ma‘muriy tizim, xonlik diplomatiyasi, shaharning me‘moriy qiyofasi, adabiy-ma‘rifiy muhit, hunarmandchilik va xalq san‘ati kabi yo‘nalishlar asosida. Xususan, Qo‘qon xonligidagi ijtimoiy-siyosiy tuzumning, amaldorlar martabasi va lavozimlarining tarixiy manbalarda aniq tasvirlangani bu ekspozitsiyalar uchun ilmiy asos vazifasini o‘taydi¹. Shuningdek, muzey ekspozitsiyalarini yaratishda interaktiv ekspozitsiyalar, QR-kodli ma‘lumotlar, 3D rekonstruksiya qilingan tarixiy binolar va virtual sayr texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday

¹ Вохидов Ш. Мухаммад Юнус Тоиб. Тарихи Алиқули амирлашкар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1996. – № 1-2.– Б.-32.

texnologiyalar Qo‘qon madaniyati, xususan, me‘moriy obidalar (masalan, Jome masjidi, Modarixon maqbarasi) va hunarmandchilik turlari – misgarlik, ganchkorlik, kashtachilik singari boyliklarni jonlantiradi².

Ekspozitsion konsepsiyada Qo‘qon adabiy muhitining etnografik va estetik kontekstda talqin qilinishi alohida ahamiyatga ega. Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Madalixon, kabi shoirlar ijodi orqali xonlik davridagi ijtimoiy tafakkur, estetik qarashlar va ayollarning ma‘naviy ijtimoiy faolligi yoritilishi mumkin³. Shu bilan birga, bu shaxslar hayoti asosida yaratilgan ekspozitsion personajlar – o‘quvchilarning madaniy merosga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Qo‘qon merosini zamonaviy muzeylarda talqin etish bilan bog‘liq yondashuvlarda G‘arbiy muzeyshunoslik tajribalari ham nazarda tutilmoqda. Jumladan, interaktiv va tajribaga asoslangan yondashuvlar (experiential museum practice) orqali tomoshabinni ekspozitsion makon ichida faol ishtirokchi sifatida shakllantirish mumkin. Bunday yondashuvlar Qo‘qon shahri va xonligining urbanistik o‘ziga xosligi, hunar va savdo-sotiq madaniyati, karvon yo‘llari orqali madaniy ta‘siralar almashinuvi kabi murakkab tarixiy qatlamlarni ommabop tarzda ifoda etishga xizmat qiladi⁴. Shu o‘rinda Qo‘qon tarixining ko‘p qirrali xususiyatlarini o‘rganishdagi g‘oyaviy manbalar, masalan, “Tarixi Shohruxiy”, “Tarixi Aziziy”, “Tarixi jadidayi Toshkand” kabi tarixiy asarlar muzey ekspozitsiyalari mazmunini boyitishga xizmat qilishi mumkin⁵. Bu manbalarni zamonaviy vizual formatlarda (infografika, komiks, audio-vizual animatsiyalar) ekspozitsiyalarga kiritish esa tarixiy bilish jarayonini qulaylashtiradi. Qo‘qon madaniy merosini zamonaviy muzeylarda ekspozitsion konsept asosida taqdim etish nafaqat tarixiy xotirani jonlantirish, balki zamonaviy avlod ongida milliy identitetni shakllantirishga xizmat qiluvchi barqaror, zamon ruhiga mos ilmiy-madaniy yondashuvdir.

Shu nuqtai nazardan, Qo‘qon madaniy merosini zamonaviy muzeylarda ekspozitsion konsept asosida ifodalash masalasi – ekspozitsion arxitektura, semantik yondashuvlar, vizual va interaktiv vositalarning uyg‘unlashuvi orqali hal qilinishi zarur. Bu jarayonda tematik bloklarga ajratilgan ekspozitsiyalar (masalan,

² Азимов Н. Архитектурные памятники Ферганской долины. – Ташкент, 1982. – 109 с. Азимов И. Росписи Узбекистана. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1987. – 91 с.

³ Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент, 1961. – В. 231; Қодирова М. Давр Нодираси. – Тошкент: Фан, 1991. – В. 104.

⁴ Азадаев Ф.А. Ташкент во второй половине XIX в. Очерки социально-экономической и политической истории. – Ташкент: Издательство Ан РУз, 1959. – 184 с; Ахмедов, 1985. – В. 96). Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература в Средней Азии XVI-XIX в. (Письменные памятники) – Ташкент: Фан, 1985. – 96 с.

⁵Бейсембиев Т.К. Тарихи Шохрухи как исторический источник. – Алматы: Наука, 1987. – 43 с. Султонов Ў. Мухаммад Солиххўжа ва унинг Тарихи жадидаи Тошканд асари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – В. 173.

diplomatik aloqalar, hunarmandchilik, ayol shoirlalar ijodi, karvon savdosi, diniy-ma'rifiy muassasalar) tarixiylik, ilmiylik va estetik uyg'unlik tamoyillari asosida yoritilishi lozim. Shuningdek, ekspozitsion strategiyalarda xalqaro tajribalar asosida shakllanayotgan "yashayotgan muzey" (living museum) konsepsiyasining joriy etilishi – tomoshabinni passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantirish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, Qo'qon xonligi tarixining murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy qatlamlarini yangi interpretatsiyada ochib berish bilan birga, tarixiy voqelikni zamonaviy vizual estetik vositalar bilan uyg'unlashtirish imkonini ham yaratadi⁶.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Qo'qon madaniy merosini ekspozitsiya konsepsiyasi asosida zamonaviy muzeylarda namoyish etish o'tmish va kelajakni bog'lovchi muhim yo'nalishlardan biridir.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Вохидов Ш. Муҳаммад Юнус Тоиб. Тарихи Алиқули амирлашкар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1996. – № 1-2 – Б.-32.
2. Азимов Н. Архитектурные памятники Ферганской долины. – Ташкент, 1982. – 109 с. Азимов И. Росписи Узбекистана. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1987. – 91 с.
3. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент, 1961. – В. 231; Қодирова М. Давр Нодираси. – Тошкент: Фан, 1991. – В. 104.
4. Азадаев Ф.А. Ташкент во второй половине XIX в. Очерки социально-экономической и политической истории. – Ташкент: Издательство Ан РУз, 1959. – 184 с; Ахмедов, 1985. – В. 96).
5. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература в Средней Азии XVIII-XIX в. (Письменные памятники) – Ташкент: Фан, 1985. – 96 с.
6. Бейсембиев Т.К. Тарихи Шохрухи как исторический источник. – Алматы: Наука, 1987. – 43 с. Султонов Ў. Мухаммад Солиххўжа ва унинг Тарихи жадидаи Тошканд асари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – В. 173.
7. Scomt S. Levy. The Ferghana Valley and the Crossroads of World History: The History of Kazakhstan. 1709-1822 // Journal of Global History, 2007. Volume 2. –№2. – P. 189–191.

⁶ Scomt S. Levy. The Ferghana Valley and the Crossroads of World History: The History of Kazakhstan. 1709-1822 // Journal of Global History, 2007. Volume 2. –№2. – P. 189–191.